

TIJORAT BANKLARINING PUL OQIMI SOHASINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YANGI XIZMAT TURLARINI KO'PAYTIRISH

Nabiyev Farrux Safarovich-

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti assistenti

farruxnabiyevv@gmail.com

Jo'rayev Quvonchbek To'ra o'g'li-

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti talabasi

farruxnabiyevv@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarining pul oqimini boshqarish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Bank likvidligi va risklar boshqaruvida pul oqimlarini samarali boshqarishning o'ri asoslab beriladi. Mazkur maqolada banklarning pul oqimi barqarorligini baholashning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari keng tahlil qilingan. Pul oqimlarining shakllanish manbalari, ularning samarali boshqarilishi va taqsimlanishi bankning moliyaviy barqarorligini belgilavchi muhim omil sifatida ko'rsatiladi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, dinamik usullar va modellash imkoniyatlari qo'llanilgan. Xalqaro tajribada keng qo'llanilayotgan metodikalar milliy bank tizimi uchun moslashtirish imkoniyatlari bilan solishtirilgan. Natijalar banklarda moliyaviy xatarlarni kamaytirish va pul oqimlari barqarorligini mustahkamlashga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Pul oqimi, barqarorlik, ulubiyot, likvidlik, rentabellik, modellashtirish, moliyaviy xatar, qiyosiy tahlil, xalqaro tajriba.

Kirish. Mamlakatimizda moliyaviy bozorlarni yanada rivojlantirish va bank tizimini barqarorlashtirish yo'nalishida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "Bank tizimini isloh qilish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni banklar faoliyatida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatib berdi.[1] Shuningdek,

Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 iyundagi 402-sonli qarorida banklar moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, ularning likvidligi va pul oqimlari ustidan qat'iy monitoring o'rnatish vazifalari belgilangan.[2]

Bugungi kunda banklarning pul oqimlari barqarorligini baholash iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki pul oqimi bankning likvidlik holati, moliyaviy barqarorligi va investorlar hamda mijozlar ishonchini ta'minlaydigan asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Xususan, elektron to'lov tizimlari va raqamli bank xizmatlari joriy etilishi pul oqimlari harakatini yanada shaffof va prognoz qilish imkoniyati yuqori bo'lishini talab etmoqda.

Shu munosabat bilan bank pul oqimlarini ilmiy asosda baholash uslubiyotlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunda xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish, milliy bank tizimining xususiyatlarini hisobga olish hamda amaliyotda qo'llaniladigan model va metodlardan foydalanish zarur. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, u banklar faoliyatida moliyaviy xatarlarni kamaytirish, pul oqimlari barqarorligini ta'minlash va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishonchli mezon sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Banklarning pul oqimlari va moliyaviy barqarorligini baholash masalalari xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Masalan, J. Keyns va M. Fridman asarlarida pul aylanmasi barqarorligi va likvidlikni ta'minlash nazariy asoslari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda pul oqimini prognoz qilish va moliyaviy modellashtirish usullari (R. Brealey, S. Mayers) keng qo'llanilmoqda. Xalqaro amaliyotda pul oqimlari tahlilida D. Briggem va Ye. Fama kabi olimlar metodologiyasi asosiy o'rin tutadi.[3]

O'zbekistonlik olimlardan X.Xamidov, B.Abduraxmonov hamda A.Mirzaev ishlarida tijorat banklarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va pul oqimlarini samarali boshqarish masalalari yoritilgan. Bundan tashqari, Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlarida bank tizimini modernizatsiya qilish va tijorat

banklari likvidligini oshirish yo'nalishlari ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy tashkilotlar — Jahon banki va XVJ hisobotlarida bank pul oqimlari tahlili bo'yicha metodologik tavsiyalar berilgan.[4]

Taxlil va natijalar. O'zbekiston bank tizimida pul oqimlarini to'g'ri baholash va ularning barqarorligini ta'minlash so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Banklarning moliyaviy barqarorligi, avvalo, ularning operatsion pul oqimlari barqarorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois 2021–2024 yillardagi dinamika qiyosiy tahlil qilindi.

Mamlakatimizda Banklar pul oqimlari tahlili (mlrd so'm, shartli raqamlar), 1-jadval.[5]

Yil	Ko'rsatkichlar			
	Operatsion pul oqimi	Investitsiya pul oqimi	Moliyaviy pul oqimi	Umumiy pul oqimi
2021	12 500	-3 200	2 800	12 100
2022	14 800	-4 100	3 500	14 200
2023	17 600	-3 600	4 200	18 200
2024	20 200	-4 500	4 800	20 500

1-Jadval ma'lumotlariga ko'ra, operatsion pul oqimlari doimiy ravishda o'sib borgan. Agar 2021 yilda bu ko'rsatkich 12 500 mlrd so'mni tashkil yetgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 20 200 mlrd so'mga yetgan. Bu banklarning asosiy faoliyatdan olinayotgan daromadlari barqaror o'sishda yekanligini anglatadi.

Investitsiya pul oqimlari esa tahlil davrida manfiy ko'rsatkich bilan namoyon bo'lgan. 2022 yilda -4 100 mlrd so'mni tashkil etgan investitsiya oqimi 2024 yilda yanada -4 500 mlrd so'mgacha o'sgan. Bu holat, bir tomondan, banklar investitsiya yo'nalishida faolligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, kapital qo'yilmalarning qaytishida ma'lum vaqt talab etilishini bildiradi. Shu bois investitsiya pul oqimlarining manfiy ko'rsatkichi banklar uchun xavfli holat sifatida emas, balki ularning strategik rivojlanish yo'nalishi sifatida baholanishi lozim.

Moliyaviy pul oqimlari ham yildan-yilga o'sib borgan. Agar 2021 yilda bu ko'rsatkich 2 800 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda 4 800 mlrd so'mga yetgan. Bu holat banklarning tashqi va ichki manbalardan moliya jalb qilish imkoniyatlari kengayib borayotganini ko'rsatadi. Moliyaviy oqimlarning o'sishi banklar kapital bazasini mustahkamlash va likvidlikni oshirish imkonini berdi.

Umumiy pul oqimi tahlil davrida barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. 2021 yilda 12 100 mlrd so'm bo'lgan ko'rsatkich 2024 yilda 20 500 mlrd so'mga yetdi. Bu natija banklar faoliyatidagi moliyaviy barqarorlik kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

Tahlildan ko'rinib turibdiki, operatsion pul oqimlarining yuqori sur'atda o'sishi banklarning asosiy faoliyati samaradorligini oshirgan. Investitsiya pul oqimlarining manfiy ko'rsatkichi esa banklar tomonidan uzoq muddatli aktivlarga yirik sarmoya kiritilayotganidan dalolat bermoqda. Moliyaviy pul oqimlari o'sishi esa kapitalning jalb qilinishi va moliyaviy xatarlarni diversifikatsiya qilish imkoniyatini kuchaytirgan.

Shu asosda aytish mumkinki, bank pul oqimlarini tahlil qilishda faqatgina absolyut ko'rsatkichlarga emas, balki ularning tarkibiy xususiyatlariga ham e'tibor qaratish zarur. Chunki operatsion pul oqimlari barqarorligi bankning likvidlik darajasini ta'minlasa, investitsiya pul oqimlari kelgusi yillardagi rivojlanish

imkoniyatlarini belgilaydi, moliyaviy pul oqimlari esa kapital bozorlari bilan bog‘liqlik darajasini namoyon qiladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, banklarda pul oqimlari barqarorligini baholash tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni oshirish, investitsiya siyosatini samarali yo‘naltirish va kreditlash jarayonlarini optimallashtirish mumkin va bunda qo‘yidagilarni qayd etib o‘tish mumkin;ни оптималлаштириш мумкин ва бунда қўйидагиларни қайд этиб ўтиш мумкин;

- ❖ Operatsion pul oqimlarini diversifikatsiya qilish va yangi daromad manbalarini shakllantirish.
- ❖ Investitsiya pul oqimlari tahlilida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish.
- ❖ Moliyaviy pul oqimlarini uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari hisobiga oshirish.
- ❖ Pul oqimlarini baholashda xalqaro standartlardan keng foydalanish.
- ❖ Banklar pul oqimlari bo‘yicha doimiy monitoring va prognoz tizimini joriy etish.
- ❖ Pul oqimlari barqarorligini oshirish orqali banklarning iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash salohiyatini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 27 iyuldagi “Milliy bank tizimini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 421-son qarori.
2. Xamidov X.X., Abduraxmonov B.E. “Moliya bozorlari va institutlari”. Darslik. – T.: “Iqtisodiyot”, 2020.
3. Mirzayev A.M., Karimov F.Sh. “Bank ishi”. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2019.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobotlar va moliyaviy barqarorlikka oid tahliliy materiallar (2021–2024 yillar). – Toshkent
5. “Asakabank” ATB va “Ipotekabank” ATB. 2021–2024 yillar moliyaviy hisobotlari va pul oqimlari tahlili. – Toshkent.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida bank-moliya ko‘rsatkichlari. Statistik to‘plam (2021–2024). – Toshkent.
7. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (XVJ) va Jahon banki hisobotlari. “Financial Stability Report” va “Global Banking Outlook”. – Vashington, 2021–2023 yillar.
8. “Asakabank” ATB va “Ipotekabank” ATB. 2021–2024 yillar moliyaviy hisobotlari va pul oqimlari tahlili. – Toshkent.
9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida bank-moliya ko‘rsatkichlari. Statistik to‘plam (2021–2024). – Toshkent.
10. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (XVJ) va Jahon banki hisobotlari. “Financial Stability Report” va “Global Banking Outlook”. – Vashington, 2021–2023 yillar